



## ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH

*Akmaldinova F.*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** fikrlash, mantiq, tafakkur, bilish, analiz, sintez.

**Ключевые слова:** мышление, логика, мышление, знание, анализ, синтез.

**Key words:** thinking, logic, thinking, knowledge, analysis, synthesis.

Yurtimizda so'ngi yillarda olib borilayotgan islohatlar samarasi o'laroq ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar va ularning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratilib, Harakatlar strategiyasi hamda uning uzviy davomi Taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim sifati va samarasini oshirish, ta'lim xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish borasida yetarlicha chora-tadbirlar belgilab berildi.

Bugungi umumiy o'rta ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar negizida ham o'quvchi shaxsini har tamonlama rivojlantirish, uni barkamol avlod etib voyaga yetkazish o'qitishning asosiy maqsadini tashkil etadi. Ayni vaqtda umumiy o'rta ta'lim o'quvchisining jahon standartlariga javob bergan holda ijtimoiy muloqot madaniyatiga ega bo'lishi, glaballashuv sharoitida yuz berayotgan axborotlarni mustaqil sharxlay olishi, uning mazmunidan to'g'ri hukm va xulosa chiqara olish malakasiga ega bo'lishi muhim ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Shu o'rinda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – degan fikrlarini qayd etishni o'rinli deb bilamiz. Mana shu safarbarlikning asosiy yuki esa, albatta, o'rta ta'lim bosqichida amalga oshiriladi. Sababi "milliy



o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani bilan faxrlanish tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy, madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat" "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"da mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etilgan.

Hozirgi globallashuv sharoitida o'quvchi shaxsini tarbiyalash zamon va taraqqiyotning talabi bilan o'qituvchidan kuchli intellektual qobiliyat va pedagogik mahorat talab qilmoqda. Sababi, rivojlanagan va rivojlanayotgan mamlakatlarning yutug'i ham ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan talablarning samaradorligi hisobidan yuz berayotganligini inkor eta olmaymiz. Chunki bugugungi kun o'quvchisini barkamol shaxs etib tarbiyalashga erishish, kelajakda mamalakatning har bir sohadagi rivojlanishiga bevosita bog'liq hodisa hisoblanadi. Yurtimizdagi ta'lim sohasida yuz berayotgan islohatlar ortida mustaqil fikrlaydigan, yuz berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni teran tahlil eta oladigan, mamalakat taraqqiyotida o'zining pozitsiyasiga ega bo'lgan, dunyoqarashi keng, zakiy, zukko barkamol avlodni tarbiyalash masalasi turibdi. Bunga erishish esa o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishda uning fikrlash jarayonlarini to'g'ri rivojlantirishdan boshlanadi.

Fikrlash – bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi natijasi o'laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy operatsiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir.

Rus olimi V.M. Klarin fikrlashni quyidagicha talqin etadi: "Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har on, har daqiqada inson miyasi qandaydir fikrlar bilan band. Ularni tartibga solish, keragiga qaratish, ichki yoki tashqi nutq yordamida uni yechish - fikrlash jarayonidir". Olimning qarashlaridan anglash mumkinki, fikrlash jarayoni til va tafakkur munosabatining mahsuli. Mantiqning o'rganish obekti bo'lgan tafakkur fikrlashning yuqori pog'onasi sifatida nutq jarayonlarida amalga oshadi.

Tadqiqotchil B.Norboboyev o'zining mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarining birida: "Fikrlash – shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqealikka bevosita va umumlashgan holda aks etishi bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o'zida mujassamlashtiradi. Fikrlash insonga haqiqat hodisalari o'rtasidagi aloqalarni topish imkonini beradi, lekin aniqlangan bog'liqlik haqiqatdan vaziyatnign aniq holatini aks ettirish uchun u obektiv, to'g'ri yoki boshqacha aytganda, mantiqqa tayangan, mantiq qonunlariga mos bo'lishi kekrak", ekanligini ta'kidlaydi.

Bilamizki, insoniyat qadimdan ma'lum bir qonuniyatlar o'lchovida harakatlangan. Nafaqat insoniyat, balki butun olam, xoh u tabiat bo'lsin, xoh u inson angalayolmaydigan sirli hodisotlar bo'lsin, doimo o'ziga xos mantiqiylikka ega bo'ladi. Yoki hech bo'lmaganda bashariyat bunday hodislarga mantiqiy izohni topishga harakat qiladi. Xullas, odam va uning atrofida yuz berayotgan barcha jarayonlar, inson fikrlashining keng ma'noda tafakkurining taraqqiyoti muayyan mantiqiylikka tayanadi. Demakki, har qanday fikrlash jarayonlari (ijodiy, tanqidiy, kreativev, eksperimental va boshq.) mantiqiylikdan uzilmagan holatda sodir bo'ladi. Mantiq ilmida qator izlanishlar olib borgan olimlardan biri V.I.Kirillov tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklarda obektiv va subektiv mantiqiylik borligini to'g'ri ajratib berganligini alohida etirof etishimiz mumkin. Haqiqatdan ham yon atrofda sodir bo'layotgan jarayonlar, qolaversa tafakkurimizda yuz berayotgan hodisalarda muayyan mantiqiylik bor ekanligini doimo his etib turamiz. Agar bu jarayonlar mantiqiylikdan uzilsa, ularning ahamiyati ham, qiymati ham yo'qoladi.

Aytish kerakki, o'quvchi shaxsini tarbiyalashda ham uning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirar ekanmiz, bilish jarayonlarida o'quvchining mantiqiy fikrlashga o'rgatish borliqini to'g'ri o'zlashtirishida va o'zgartirishida muhim hodisa sanaladi.

Mantiqiy fikrlashga bilish jarayonlarining eng qadimiy va umrboqiy turi sifatida qarashimiz uning ahamiyatini yanada barqarorlashtiradi. Shu o'rinda mantiq so'zining lug'aviy ma'nosiga ahamiyat qaratsak, "mantiq" so'zining kelib chiqishi arabcha so'z hisoblanib (grekcha "logika" atamasiga mos keladi), uning ma'nosi «fikir», «so'z», «aql», «qonuniyat» kabi ma'nolarni anglatadi. Uning ko'p ma'nologligi turli xil narsalarni ifoda qilishda o'z aksini topadi. Xususan, mantiq so'zi, birinchidan, obektiv olam qonuniyatlarini, ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo'lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig'indisini ifoda etishda ishlatildi.

Dastlab mantiq ilmini Aristotel alohida fan sifatida shakllantirdi. U mantiqni o'rganadigan obektlar ko'lamini aniqlab berdi. Aristotel mantiqni "ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni aniqlovchi", "chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi" fan deya e'tirof etadi. Bundan anglashiladiki, mantiq ilmining maqsadi o'z-o'zidan insonni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, yuritilayotgan mulohazlarning aniqligi va isbotlilikiga erishishdir.

O'rta Osiyoda ham falsafa va mantiq mustaqil fan sifatida taraqqiy etdi. Bunda Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy, Bedil kabi buyuk mutafakkirlarning xizmati katta bo'ldi. Farobiy o'zining „Mantiqqa



kirish“, „Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi“ asarlarida mantiq masalalariga ilmiy bilish metodlari deb qaragan Farobiy fikricha, mantiq insonlarni bilish jarayonidagi turli xato va adashishlardan saqlaydi. Farobiy tushuncha, hukm va ularning turlari, xulosa chiqarish, sillogizm va uning figuralari, moduslarini tahlil qildi. Sillogizm va isbotlash usuli eng to‘g‘ri, haqiqatga olib keluvchi usul deb hisobladi.

Gegel esa, falsafa mantiq shaklida mavjudligini, uning o‘rganish ob‘yektini tafakkur tashkil etishini, mantiqning asosiy vazifasi haqiqatni aniqlash, unga erishish yo‘llarini o‘rganish ekanligini ta‘kidlaydi. Allomalarnig fikrlaridan ayon bo‘ladiki, mantiq ilmining vazifasi uning obekti bo‘lgan tafakkur va uning shakllari (tushuncha, hukm, xulosa), qonuniyatlari (yetarli asos, ayniyat, nozidlik, istisno) orqali borliqni to‘g‘ri anglash va munosabatlarni to‘g‘ri tahlil etishga qaratiladi. Anglash jarayoni esa bevosita mantiqiy fikrlash jarayonida sodir bo‘ladi.

Aytish joizki, mantiq dalil keltirish va xulosa chiqarish prinsiplarini o‘rganuvchi falsafiy tadqiqotdir. Formal fan sifatida mantiq abstrakt unsurli tizimlarni tadqiq etadi, bu unsurlar ta‘kid yoki argumentlar bo‘lishi mumkin. Mantiq muammolari o‘zi ichiga paradokslar, xatolar, sabab va oqibatlar orasidagi bog‘lanishlarga oid savollarni oladi. Mantiq – to‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Demak mantiqning quroli – tafakkur hisoblanadi.

Xulosalardan kelib chiqib mantiqiy fikrlashni quyidagicha talqin etishga harakat qilamiz. Mantiqiy fikrlash – fikrlashning eng yuqori darajasi bo‘lib, u fikrlarning uzviy bog‘langan ketma-ketligini isbotlangan holda, mantiqiy qonuniyatlar talabiga mos ravishda til va tafakkur birligidan hosil bo‘luvchi aqliy mushohada. Shuningdek, uning xarakterli tamoni, mantiqiy fikrlash – barcha fikrlash jarayonlarining yadrosi hisoblanadi.

Demak, har qanday fikr mantiqiy yondashuvdan kelib chiqadi. Insonning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uning butun bilish jarayonlarida hamda uning ijtimoiylashuvida, dunyoqarashlarida muhim omil sanaladi. Shunday ekan, har qaysi jamiyatda ham mantiqiy fikrni rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Ba‘zi tadqiqotchilarning fikricha, mantiqiy fikrlashni faqat o‘quv fanlarini o‘rganish orqali rivojlantirish samarasiz, bu yondashuv mantiqiy fikrlash texnikasini to‘liq o‘zlashtirishni ta‘minlamaydi va shuning uchun mantiq bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari zarur (Yu. .I.Vering, N.I.Lifinseva, V.S.Nurgaliev, V.F.Palamarchuk). Boshqa bir guruh tadqiqotchilar (D.D.Zuev, V.V.Kraevskiy) o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish o‘quv fanlarining o‘ziga xos fan mazmuniga urg‘u berish, ularda uchraydigan



mantiqiy amallarni aniqlash va tushuntirish orqali amalga oshirilishi kerak, deb hisoblaydi. Ammo bu masalani hal qilishda qanday yondashuv bo'lishidan qat'iy nazar, ko'pchilik tadqiqotchilar o'quv jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagilarni belgilaydilar: o'quvchilarda kuzatilgan obektlarni taqqoslash, ulardagi umumiy xususiyatlar va farqlarni topish qobiliyatini rivojlantirish; obektlarning muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va ularni ikkilamchi, ahamiyatsizlaridan chalg'itish (mavhum) qobiliyatini rivojlantirish; o'quvchilarni har bir komponentni tushunish uchun obektni uning tarkibiy qismlariga ajratish (tahlil qilish) va qismlarning va yaxlit obektning o'zaro ta'sirini o'rganishda aqliy ravishda ajratilgan narsalarni bir butunga birlashtirish (sintezlash) ni o'rgatish; maktab o'quvchilarini kuzatishlar yoki faktlardan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish va bu xulosalarni tekshira bilish; faktlarni umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish; o'quvchilarda o'z hukmlarining haqiqatini ishonchli isbotlash va noto'g'ri xulosalarni rad etish qobiliyatini rivojlantirish; o'quvchilarning fikrlari aniq, izchil, izchil va asosli bayon etilishini ta'minlash.

Jumladan, professor Sh.Yusupova o'z tadqiqot ishida mantiqiy fikrlash qonuniyatlarini o'quvchilarga singdirish nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini qayd etib, "Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishda mantiqiy qonunlarni e'tiborga olish nutqqa, til o'qitishga til va nutq, til va tafakkur dialektikasi asosida qarashni talab etadi", degan edi.

Respublikamiz olimlarining umumta'lim maktabi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish borasida turli fanlar kesimida olib borgan ilmiy tadqiqot izlanishlari ham bu jarayonni muhim faoliyat ekanligini isbotlab bergan. B.X.Xo'jayev tadqiqot ishida umumta'lim maktablari o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning asosiy omillarini sanab o'tar ekan fikrlashga mantiqiy yondashuvsiz erishib bo'lmasligini uqtiradi. Sh.O.Toshpo'latova esa fizika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish fizik hodislarni o'rganishda eng zaruriy sharti ekanligini ta'kidlagan. Psixolog Sh.R. Samarova esa o'quvchilarining fikrlash jarayonlarini diagnostika qilishda asosiy e'tiborni ularning mustaqil va mantiqiy fikrlashiga qaratadi. Bu jarayon bola shaxsini ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib bergan. M.R. To'raboyeva o'zining ilmiy izlanishlarida talabalarda kerativ kompetensiyalarni shakllantirish avvalo ularning fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan uzviy bo'g'liqligini ta'kidlaydi. Kerativ kompetensiyalarni mantiqiy tafakkurning mahsuli deb qaraydi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, unga yangi bilim berish kabi muhimdir. Bilim qurol bo'lsa, mantiq undan



foydalanish qobiliyatidir. Ma'lumki, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilimlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtda amalga oshirilishi kerak. Mantiqiy fikrlash tug'ma iste'dod emasligini hisobga olib, o'quvchilarning bu boradagi qobiliyatlarini shakllantirish kichik maktab yoshidanoq amalga oshirilishi kerak. Yuqori sinf bosqichlarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bosqichi amalga oshirilib, bunda o'quvchilar borliqni teran tafakkur qila olish malakasiga ega bo'ladilar.

Yuqori sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga yondashuvlar turlicha bo'lishga qaramay, tadqiqotchilarning o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashdagi qarshilaridan kelib chiqib, biz ham o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy omillarini quyidagicha belgiladik:

O'quvchilarning o'rganilayotgan predmetlarni taqqoslashga, ulardagi o'xshashliklar va farq qiluvchi jihatlarini aniqlashga o'rgatish;

O'quvchilarga predmetlarni tarkibiy qismlarga (analiz) bilish maqsadida ajratish alohida tashkil etuvchi qismlarni yaxlit predmet sifatida birlashtirish (sintez) hamda bu jarayonda qismlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga o'rgatish;

Predmetlarning eng muhim va ikkinchi darajali xususiyatlarini ajratib olishga o'rgatish o'quvchilarga kuzatish va mavjud faktlar asosida to'g'ri xulosa chiqarish;

Xulosalarni tekshirish, ishonarli tarzda isbotlash, yolg'on mulohazalarni inkor qilishga o'rgatish;

O'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini ma'lum bir tartib va ketma-ketlikda, asoslangan holda, bir-birini inkor qilmaydigan mulohazalar yordamida bayon qilishlarini nazorat qilish.

Shunday qilib, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik va ijtimoiy zaruriyat bo'lib, bu barkamol avlod tarbiyasidagi muhim omil hisoblanadi, Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" kabi vazifalar belgilab qo'yilgan. Mazkur vazifaning samarali hal etilishi, o'z navbatida, ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga ham mas'uliyat bilan yondashish zarurligini taqozo etmoqda.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”-ги ПФ-5712-сон Фармон – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 29.04.2019 й., 6/19/5712/3034-сон, 2019 й.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 14.
5. Гончарова, О. С. Развитие логического мышления на уроках математики в начальных классах / О. С. Гончарова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 10 (45). — С. 329-331.
6. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: “Знание”, 1989 г. С. 75.
7. M.Sharipov, D.Fayzixo'jayeva. Mantiq. Toshkent; - 2004. – 300 b. (-B. 5.).
8. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y. 34-b.
9. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларининг мустақил фикрлашини шакллантиришнинг дидактик асослари(5-7-синф тарих фанлари мисолида) пед.фан.намзоди. дисс.2009.
10. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): пед. фан. док.... дисс. – Тошкент, 2005. – 250 б.
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mantiq>

**РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda o'quvchi shaxsini barkamol etib tarbiyalashda ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jaryonida mantiqiy tafakkurning o'ziga xos ahamiyati xususida so'z boradi. Mantiqiy fikrlash barcha fikrlash faoliyatini asosiy mexanizmi ekanligi, bu jarayon o'quvchini borliqni o'zlashtirish harakatlarida va unga munosabat bildirish jarayonida muhim omilekanligi ilmiy asoslanib berilgan. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье говорится об уникальном значении логического мышления в процессе развития его мыслительных способностей в развитии личности школьника в современном образовании. Научно доказано, что логическое мышление является основным механизмом всей мыслительной деятельности и что этот процесс является важным фактором в попытках учащегося овладеть существованием и в процессе реагирования на него. Подчеркивается, что развитие логического мышления учащихся является одной из актуальных задач современного образования.

**SUMMARY**

This article talks about the unique importance of logical thinking in the process of developing their thinking abilities in the development of the student's personality in modern education. It is scientifically proven that logical thinking is the main mechanism of all thinking activities, and that this process is an important factor in the student's attempts to master existence and in the process of reacting to it. It is emphasized that the development of students' logical thinking is one of the urgent issues of modern education.